

ONA TILI FANI O'QITILISHINING DOLZARB MUAMMOLARI

Muhammadiyeva Gulchehra Akramovna

Jizzax Politehnika instituti akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ona tilini bilish bu bilimning boshlanishidir. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat tiliga, ya'ni o'zbek tiliga e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Shu bois, umumta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda yangicha usullar, ilg'or pedagogik hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kerakligi zamon talabiga aylanmoqda. Aynan shu maqsadni nazarda tutgan holda ushbu maqola umumta'lim maktabi ona tili darslarida dars o'tishning yangicha talqinlariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: talaffuz, nutqiy ko'nikma, zamonaviy texnik vositalar, tekshirish metodlari, til ma'nolari.

Maktablarda ona tili darslarini o'tishga bugungi kunda yanada jiddiyroq e'tibor berilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni imzolandi.¹ Unga ko'ra O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida ustuvor vazifalar belgilab berildi.

So'nggi yillarda jahon ta'lim tizimida tilni zamon talablari asosida mustaqil o'zlashtirish usullarini tatbiq etishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan bizning respublikamizda ham har bir til va adabiyot fanini o'qituvchi mutaxassis ustoz o'z darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga qaratmoqda.

Maktablarda ona tili darslarini samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar quyidagi jihatlarga e'tiborli bo'lishlari darkor:²

1. Darsni 8-12, 15-20 kishidan iborat guruhlarda tashkil etish.
2. O'qitishda zamonaviy texnik vositalar (video-magnitofon, kompyuter va boshqa audiovizual jihozlar) dan foydalanish.
3. Til o'rgatishda, shuningdek, fan bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, mavzular bo'yicha uslubiy ko'rsatma va ishlanmalardan mustaqil ravishda foydalanish.

¹ www.lex.uz

² K.Usmonova. Adabiy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2015 y. 63-b.

4. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda tilni nazariy jihatdan o'rganishga, yangi nutqiy ko'nikmalar hosil qilishga e'tibor qaratish.

Bundan tashqari, ona tilini o'rgatishda to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasini shakllantirish va so'z boyligini muntazam ravishda oshirib borish muhim ahamiyatga ega. Bunda texnik vositalar - video va audiomagnitafonlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Ona tilini o'rganishda mustaqil ishlash (matn ustida) ta'lim sifatini ta'minlaydigan eng muhim shartlardan biri bo'lib, u o'quvchilarni o'zlari o'rganayotgan tilda fikr-mulohazalarini mustaqil va erkin bayon qila olish ko'nikmalarini takomillashtirish bilan belgilanadi. Mustaqil ishlashda belgilangan mavzu asosida amaliy ish (mavzu bo'yicha mashqlar) bajarish hamda muayyan mavzu asosida izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy fanlar uchun amaliyot muhim rol o'ynaydi. Ona tili fani ham amaliy fanlar sirasiga kiradi. Har qanday amaliy xulosalar ishonarli bo'lishi, yuqori ilmiy darajada, ya'ni puxta va asosli bo'lishi lozim. Metodika tavsiyalarining ilmiy darajasi, nazariy tasdiqlanishi yuqori saviyada bo'lishi tekshirish metodlarining puxtaligiga ham bog'liq.

Tekshirish metodlari 2 xil bo'ladi:

1. Nazariy tekshirish metodlari.

2. Empirik metod (tajribaga asoslangan metod).³ Bu metod quyidagi maqsadlarda qo'llanadi:

- a) bu metod o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, yangiliklarini tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining darajasini aniqlash;
- b) o'quvchilarni o'qitish jarayonini maqsadga muvofiq kuzatish (dars, uning biror qismini, o'quvchilarning javobi, hikoyasini, yozma ishini tekshirish), o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini so'rovnomalar orqali tekshirish;

Ayniqsa, umumta'lim maktablarining ona tili darslarida til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish tamoyillarini o'qitishni yangicha talqinda tashkil etish lozim. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o'zaro bog'langan holda o'rgatish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rgatish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika so'z yasalishiga suyanadi va hokazo. So'zni morfemik tahlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning hamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish lozim.

Xulosa qilib aytganda, ona tili fanini o'rgatuvchi mutaxassis o'qituvchi o'z darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga katta e'tibor qaratishi lozim. Maktablarda ona tili darslarini samarali tashkil etish kelajakda tilimiz rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega.

³ N.Sattarova. Ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashgan maktablarda o'quvchilarni tahlil qilishga o'rgatish usullari. Buxoro. 2016 y. 28-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Usmonova. Adabiy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2015 y.
2. N.Sattarova. Ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashgan maktablarda o'quvchilarni tahlil qilishga o'rgatish usullari. Buxoro. 2016 y.
3. www.pedagog.uz
4. www.ziyonet.uz
5. www.lex.uz
6. www.norma.uz